

ISSN: 2545-0573

**O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BELGI BILDIRUVCHI LEKSEMALAR
TADQIQI ZULFIYA QUROLBOY QIZI HIKOYALARIDA BELGI
BILDIRUVCHI SO‘ZLARNING ISHLATILISHI**

Botirova Ziyodaxon Azamjon qizi

Farg‘ona viloyati Quva tumani 13-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Rabbimova Gulmiraxon Olimjon qizi

Farg‘ona viloyati Quvasoy shahar 26- maktab o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar: *Tilshunoslik, sifat, ravish, so‘z turkumi, leksema, adabiyotshunos, morfologiya, hol, aniqlovchi, kesim, sematika, uslubiy xususiyat, badiiy bo‘yoqdorlik.*

Anotatsiya

Ushbu maqolada belgi bildiruvchi so‘zlarni kelib chiqishi, o‘rganilish tadqiqi va kimlarni asarlarida ochib berilganiga to‘xtalganmiz. Belgi bildiruvchi so‘zlarni Zulfiya Qurolboy qizi asarlaridagi qo‘llanishiga alohida to‘xtalib o‘tganmiz. Hikoyalaridan misollar keltirib izohini berib o‘tganmiz.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

O‘zbek tilshunosligida belgi bildiruvchi so‘zlar ikkita turkum doirasida o‘rganiladi: sifat va ravish. Bu ikki so‘z turkumining har ikkalasi ham belgi bildirishiga qaramay, bir biridan farq qiladi. Eng katta farqlardan biri ularning qanday so‘zning belgi bildirishidir. Masalan, sifat predmetning belgisini bildiradi, ravish esa harakatning belgisini. Ravish, nisbatan, murakkab so‘z turkumi. Bu haqida o‘rni kelganda to‘xtalamiz. Hozir esa belgi bildiruvchi so‘zlarning tarixi haqida qisqacha ma‘lumot beramiz.

Tilshunoslikda sifat turkumiga oid leksemalarning o‘rganilish tarixi juda qadim davrlarga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk”, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab”, “Asos ul-balog‘a”, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi asarlaridayoq sifatlarning belgi ifodalash xususiyati, ularning turli xil tashbehlar va badiiy san‘atlarni yuzaga keltirishdagi imkoniyatlari haqida muayyan fikr-mulohazalar mavjud edi.

Birinchi o‘zbek professori, ham tilshunos, ham adabiyotshunos, davlat arbobi A.Fitratning morfologiyaga oid qimmatli qarashlari mavjud bo‘lib, u birinchi bo‘lib o‘zbek tili grammatikasini yaratishga kirishgan olim bo‘lgan. Uning “Sarf” asarida o‘zbek tili morfologiyasi, xususan, sifat so‘z turkumi haqida bahs yuritiladi. Bu asarda sifatlar, dastlab, tub va yasamalik darajasiga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi. Sifatlarning yasalishi va bir qancha sifat yzovchilarga to‘xtab o‘tiladi. Fitrat sifat yasalishi doirasini juda keng qabul qiladi, ya‘ni uning tarkibiga bevosita sifat yasalishi bilan birga, sifat darajalari, ozaytirma sifat shakllari, sifatdosh shakllarini ham kiritgan.¹

¹ Qurbonova M. Fitrat – tilshunos. T., Universitet. 1996. B. 32

O'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumiga oid ilk ilmiy tadqiqot 40-yillarning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Z.Ma'rufov "O'zbek tili sifat darajalari", G'.Abdurahmonov "Hozirgi o'zbek tilida sifatlarning substantivatsiyasi(otlashishi)", O.Madrahimov "Hozirgi o'zbek tilida yangi yasalgan sifatlarning mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqlashgan edi.

Ma'lumki, predmet belgisini bildirib keladigan mustaqil so'zlar sifat turkumi ostida birlashadi. Sifat predmetning rangini, tusini, ta'mini, mazsini, vaqt va o'ringa munosabatini va boshqalarni bildiradi.

O'zbek tilida sifat boshqa so'z turkumlaridan o'ziga xos ma'no, maxsus forma yasovchi va so'z yasovchi affikslarga ega ekanligi bilan farqlanib turadi.

Sifatlar gapda aniqlovchi, hol, kesim vazifasida keladi. Masalan: **1**

Sifat ma'lum bir belgini ko'rsatuvchi mustaqil so'z bo'lib, funksiyasi jihatdan boshqa so'z turkumlarini konkretlashtiradi, uning ma'nosini aniqlashga yordam beradi.

Sifat so'z turkumi poetik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. u badiiy adabiyot tilida eng ko'p uchraydigan epitetlar hosil qilishda qo'llaniladi. Bundan tashqari, sifat turkumi sistemasida sinonimiya ham keng taraqqiy etgan. Bu sinonimiyaning funksional stillar nuqtai nazaridan chegaralanganligi ham sezilarli darajadadir. Bularning hammasi sifat so'z turkumining stilistik kategoriya sifatida talqin qilinishiga imkon beradi. **1**

Yuqorida belgi bildiruvchi so'zlar semantikasi, ifodalanishi, uslubiy xususiyatlari bilan tanishib, Zulfiya Qurolboy qizi ijodidan ayrim namunalarni keltirdik. Bu o'rinda ijodkorning badiiy mahoratini ochishda belgi bildiruvchi so'zlarning qo'llanishiga, ya'ni ijodkor mahoratiga to'xtalamiz.

*U tabiatan, soddagina, to'porigina, kamgap, kamsuqum, mehnatkash juvon. Ertadan kechgacha chol-kampirning xizmati va ro'zg'or tashvishlari bilan yelib-yugurib, charchamaydi, ammo eri "menminan ishing bo'lmasin. Molning tagini tozalab, tappi yopib yuraber. Shundan boshqasini eplamaysan" - deydi.*²

"Kelin" hikoyasidan olingan ushbu parchada belgi bildiruvchi so'zlardan foydalangan holda qahramonlarning ruhiyati bir-biriga qiyoslanyapti. Ayolning shuncha ijobiy xislatlari reining ko'ziga ko'rinmaydi. Zulfiya Qurolboy qizi ko'plab asarlarida ayolning matonatini, sabr-toqatini ulug'lagan. Bu hikoya parchasida ham shuni ko'ramiz, lekin tag zaminiga e'tibor bersak, *sodda, to'pori, kamgap, kamsuqum, mehnatkash* – bularning bari ijobiy belgi bo'lishiga qaramay, salbiy baho ifodalayotganini ko'ramiz. Buyuk psixolog aytganidek, "haqiqiy ayol aysar va ichi qora bo'lishi lozim". Yoki ortiqcha kamtarlik ham manmanlik hisoblanganidek haddan ortiq yaxshilik ham yaxshi emas. Bu dunyo bir kam dunyo va shu nuqsoni bilan mukammaldir. Hikoyani biinchi marta o'qiganingizda undagi belgi bildiruvchi so'zlar sizga ekspressiv ta'sir o'tkazadi. Chunki belgi bildiruvchi so'zlardan foydalanib ijodkor gradeonomiya san'atini qo'llagan. Bu shunday san'atki, unda belgi bildiruvchi so'zlar darajama-daraja joylashtiriladi. Rivojlanib boruvchi belgilarni qayta-qayta o'qiganingiz sari kelinga bo'lgan rahm tuyg'usining o'rnini boshqa bir hislar chulg'ab oladi.

Yana bir misol:

"G'ulom Sayid yoshi qirq-qirq besh yoshlar atrofida, qomati barvasta, butun vujudidan kuch yog'ilib turgan, sochlari jingalak, biroq negadir oq oralagan, qosh-kipriklari esa qop-qora kishi edi. Ko'zlari... uning ko'zlari juda chiroyli edi. Ha, ha, xuddi shunday: judayam chiroyli! Qiz ishga qabul qilingan kuniyoq uni ko'rib, yuragi qinidan chiqib ketay degan. Hayajonlanib, buni sezdirib qo'yishiga sal qoldi. G'ulom Sayid esa o'ta bosiq, o'ychan, hatto ancha sovuqqon edi. Boshqa xodimlar singari Kamolaga ham e'tibor bermayotgandek, o'zini juda sipo tutdi, faqat ish yuzasidan savol-javob qildi-yu, bo'ldi tamom, shu bilan bir kunlik ish vaqti tugadi, G'ulom Sayid o'z uyiga, Kamola o'z manziliga

² Qurolboy qizi Z. Qadimiy qo'shiq. T., O'zbekiston, 2012. B. 347

ketdi, ertasiga ertalab yana o'shanday salom-alik, savol-javob...".³

“Yovuzlik farishtasi” hikoyasidan olingan ushbu parchada belgi bildiruvchi soʻzlarning, deyarli, har bir turiga misol mavjud. Chunki qahramonlarni ochib berishda belgi bildiruvchi soʻzlardan foydalanmaslik iloji yoʻq. Adiba qolgan ijodkorlardan farqli ravishda personajlarning nafaqat tashqi koʻrinishini, balki ichki dunyosini, ruhiyatini, hatto qiladigan harakatlarini ham belgi bildiruvchi soʻzlar orqali aniq qilib ochib beradi. Oʻgʻil bolaning bosiq, oʻychan, sovuqqon boʻlishi tabiiy. Bunday xususiyatlar har bir oʻgʻil bolada boʻlishi kerak, desak ham mubolagʻa boʻlmaydi. Lekin oʻgʻil bolaga nisbatan “sipo” soʻzini qoʻllash qanchalik toʻgʻri? *Sipo* soʻzi odatda qizlarga nisbatan, yuvosh, uyatchan degan maʼnoda qoʻllanadi. Nima, qahramonimiz ham “uyatchan” bolamidi? Agar uni uyatchan desak, parcha boshida keltirilgan sifatlarni inkor etib qolmaymizmi? Gap shundaki, aziz oʻquvchilar, *sipo* – *kamtar*, *kamsuqum*, *bosiq*⁴ degan maʼnolarni anglatadi. Jonli soʻzlashuvda esa bu soʻz konnotativ maʼnosi asosida faqat qizlarga nisbatan qoʻllanadigan boʻlib qoldi. Lekin, aslida, bu soʻzning maʼnosidan koʻrinib turibdiki, uni oʻgʻil bollarga nisbatan ham qoʻllanishi mumkin. Bu esa yozuvchining salohiyati va tajribasi ulkanligini koʻrsatadi.

“Kamola har kuni ishga hayajon bilan kirib kelarkan, yuragi gurs-gurs urib, koʻzlari chaqnab ketar, tezroq uni koʻrishga shoshilar, roʻpara kelganda oʻzini yoʻqotib, gapidan adashib ketar, Gʻulom Sayidning hamon oʻsha “sovuq” muomalasidan keyingina hushi oʻziga kelib, sipo tortib qolar, alami kelganidan

yigʻlab yuboray derdi. “E, Xudo, bu ahvol qachongacha davom etadi? – derdi u tepasiga “Laboratoriya” deb yozilgan xonaga kirib, eshikni qarsillatib yoparkan.

- “Domlam boʻlsa nima qipti? Olim boʻlsa oʻziga. Bola-chaqasi ham meni qiziqitirmaydi, - derdi u oʻjarlik bilan. – Menga undan boshqa hech kim kerak emas!” Qizning koʻzlariga gʻiltillab yosh kelar, ortiga qaytib, eshikni sekin, gʻiyqillatmasdan ochib, yoʻlakning narigi betida tepasiga “Dots. Gʻulom Sayid” deb yozilgan eshikka oʻshshayib qararkan, xonasi hamon ochilmaganini koʻrib, xayolida: “Qayoqqa ketib qoldiykin?” degan oʻy tinimsiz charx ura boshlardi. Qiz bu ishlarning oqibatini oʻylamasdi, oʻylaydigan ahvolda emasdi”.

Ushbu parcha “Yovuzlik farishtasi” hikoyasidan olingan boʻlib, unda oʻzgarmas belgi bildiruvchi soʻzlardan koʻra koʻproq oʻzgaruvchan belgi bildiruvchi soʻzlardan foydalanilgan. Oʻzgarmas belgi ifodalovchi soʻzlar kabi oʻzgaruvchan belgi ifodalovchi soʻzlar ham badiiy-stilistik vazifa bajaradi. Lekin bunday soʻzlar badiiy adabiyotda koʻp oʻrganilgan. Lekin isteʼdodli adibimiz bu soʻzlardan oʻziga xos kombinatsiyalarda foydalanib, yuksak badiiy-estetik taʼsirga erishgan. Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Qurolboy qizi ijodida qoʻllanilgan belgi bildiruvchi soʻzlardan foydalanish mahoratini tahlil qilish bilan ijodkor ijodiga yangicha yondashuvni amalga oshirish imkonini berdi. Be esa ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik rivojiga sezilarli darajada yordam beradi. Bu ilmiy ishni yana davom ettirish maqsadga muvofiq de hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak badiiy asar tilining badiiy-estetik funksiyalarini tilshunoslik aspektida oʻrganish muayyan asar yaratilgan davr tilining oʻziga xosligi, yozuvchilarning soʻz boyligi, til vositalaridan foydalanish usullarini, demakki, “xalqning ruhi” boʻlgan tilga ijtimoiy taʼsirlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Ijodkorning individual uslubini oʻrganish murakkab jarayon boʻlib, u ham adabiy, ham lingvistik tahlil imkoniyatlarini oʻzida mujassamlashtiradi va shu tarzda shoir yoki yozuvchi ijodiy tafakkuri oʻziga xos jihatlarining qay tarzda yuzaga chiqishi tekshiriladi.

Hozirgi zamon adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan olib qaralganda, bizningcha, badiiy asar tuzilishi, uning turli qismlari orasidagi munosabat, badiiy nutq stilistikasi, yaʼni badiiy nutq va uning xarakteri,

³ Qurolboy qizi Z. Yovuzlik farishtasi. T., Yangi asr avlodi, 2005. B. 208

⁴ Begmatov E., Madvaliyev A. va boshqalar. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. T., Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi.

turli badiiy tasvir vositalari, shu bilan birga belgi bildiruvchi soʻzlardan foydalanish mahorati masalalarini oʻrganuvchi sohalarga nisbatan eʼtiborni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Soʻz qoʻllashdagi, yaʼni belgi bildiruvchi soʻzlardan foydalanishdagi individuallik ijodkor uslubining oʻziga xosligini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Ijodkorning ijodidagi oʻziga xos koʻp maʼnoli soʻzlarning matn jozibadorligi, badiiy boʻyoqdorligi, hissiy taʼsirchanligini oshirishdagi oʻrni xarakterlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., Oʻzbekiston, 2002.
2. Baskakov N.A. va boshqalar. Umumiy tilshunoslik. T., Oʻqituvchi. 1979.
3. Fitrat A. Oʻzbek tili qoidalari toʻgʻrisida bir tajriba. Sarf. T., Samarqand 1930.
4. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. Toshkent, 1982.
5. Qilichev B. Oʻzbek tilida partonimiya. Toshkent, 1997.
6. Quronov D. Choʻlpon nasri poetikasi. T., Sharq, 2004.
7. Qoʻchqortoyev I. Soʻz maʼnosi va uning valentligi. Toshkent, 1977.
8. Qurbonova M. Fitrat – tilshunos. T., Universitet. 1996.
9. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T., Fan va texnologiya, 2009
10. Qurolboy qizi Z. Yovuzlik farishtasi. T., Yangi asr avlodi, 2005. –B. 260.
11. Qurolboy qizi Z. Qadimiy qoʻshiq. T., Oʻzbekiston 2012. – B. 358.
12. Qurolboy qizi Z. Oʻlim hech narsa emas. T., Yangi asr avlodi, 2011.